



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUSIYASI VA XALQARO INSON HUQUQLARI STANDARTLARI O'RTASIDAGI MUVOFIQLIK TAHLILI

Ochilova Nargiza Abdinazarovna

(Nukus davlat pedagogika instituti akademik litseyining
huquqshunoslik fani o'qituvchisi)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14413471>

Annotatsiya: Ushbu tezis O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro inson huquqlari standartlari o'rtasidagi muvofiqlikni tahlil qiladi. Asosan, BMTning Inson Huquqlari Bo'yicha Umumjahon Deklaratsiyasi va boshqa xalqaro hujjatlarda ko'zda tutilgan asosiy inson huquqlarining milliy qonunchilikdagi aks etish darajasini o'rganadi. Tadqiqot konstitutsiyaviy qoidalarning xalqaro me'yorlar bilan qanday muvofiqlashganligini, shuningdek, amaliyotdagi qo'llanilishini va muammoli joylarini ko'rib chiqadi. Natijada, O'zbekistonning xalqaro huquq normalariga rioya qilishdagi yutuqlari va qiyinchiliklari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, xalqaro me'yorlar, huquqiy muvofiqlik, qonun oldida tenglik, yashash huquqi, fuqarolik va siyosiy huquqlar, diskriminatsiya, so'z erkinligi, qiyonoqlarning oldini olish.

Zamonaviy jahon tizimida davlatlararo munosabatlar tobora murakkablashib bormoqda. Bu esa, xalqaro va milliy qonunchilik tizimlari o'rtasidagi integratsiya va muvofiqlikni talab qiladi, xususan, inson huquqlari sohasida. O'zbekiston Respublikasi, mustaqillikka erishgandan so'ng, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash maqsadida qator qonun hujjatlarni qabul qildi va mavjudlarini takomillashtirish jarayonini davom ettirmoqda. Shu bilan birga, xalqaro hamjamiyatning inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha qabul qilgan qator konvensiyalari va deklaratsiyalari mavjud. Ushbu tezisning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklarining qanday qilib xalqaro inson huquqlari standartlari bilan muvofiqligini tahlil qilishdan iborat.

O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda qabul qilingan. Bu konstitutsiya normalarining inson huquqlariga doir xalqaro darajadagi hujjatlarga muvofiqlikning ta'minlanishini anglatadi. Xalqaro darajada inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha asosiy hujjat - bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Umumjahon Deklaratsiyasidir (1948). Ushbu deklaratsiya, jumladan, har bir shaxsning erkin va teng huquqlarga ega bo'lishi,



shuningdek, siyosiy va ijtimoiy huquqlarini erkin ifoda etishi kabi asosiy huquqlarni qamrab oladi. Deklaratsiyadan tashqari, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha bir qator boshqa xalqaro shartnomalar ham mavjud, jumladan, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Konvensiyasi va Xalqaro fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (Buergenthal, et al., 2009) shular qatoriga kiradi. Konstitutsiyaviy me'yorlarning bu hujjatlarga mos kelishi O'zbekiston Konsitutsiyasining muqaddimasida qayd etilgan.

Yana bir misol, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bobida inson huquqlari va erkinliklarining asosiy qoidalari belgilab qo'yilgan. Bu qoidalarga ko'ra, har bir shaxsning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, uning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va so'z erkinligi kafolatlanadi. Konstitutsiya, shuningdek, tenglik vaadolat tamoyillarini o'z ichiga olgan holda, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish majburiyatini davlat zimmasiga yuklaydi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadi-inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati, qonuniy ehtiyojlari va manfaatlarini, bir so'z bilan aytganda, inson qadrini hartomonlama himoya qilishdir.

O'zbekiston Konstitutsiyasi va xalqaro inson huquqlari standartlari o'rtaqidagi muvofiqlikni tahlil qilishda, konstitutsiyaviy qoidalarning xalqaro me'yorlar bilan qanday muvofiqlashganligini ko'rib chiqish muhimdir. Masalan, Konstitutsyaning 24-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lмаган shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi deyilgan. 25-moddasida esa yashash har bir insonning ajralmas huquqi ekanligi belgilangan, bu esa Inson huquqlari bo'yicha umumjahon Deklaratsiyasining 3-moddasiga muvofiq keladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro inson huquqlari me'yorlari o'rtaqidagi muvofiqliklarni tahlil qilishda, bir qator asosiy qoidalari va tamoyillar mavjud bo'lib, ular ikkala huquq tizimida ham o'z aksini topgan.

O'zbekiston Konstitutsiyasi har bir shaxsning teng huquqligini va tengligini ta'minlaydi, bu esa BMTning Inson huquqlari bo'yicha umumjahon Deklaratsiyasida ham qayd etilgan. Ushbu tamoyil nafaqat fuqarolarning o'zaro munosabatlarida, balki davlat organlari bilan munosabatlarida ham amal qilishi lozim. Konstitutsiya va xalqaro me'yorlar, jins, irq, millat, til yoki din kabi omillar bo'yicha hech qanday diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslikni ta'kidlaydi.

Konstitutsiyada fuqarolarning ovoz berish huquqi, saylovlar va referendumlarda ishtirok etish huquqi kabi siyosiy huquqlar aniq belgilangan. Bu huquqlar Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakning 25-moddasida,



hamda boshqa xalqaro hujjatlarda ham o'z ifodasini topgan. O'zbekistonning milliy qonunchiligi orqali fuqarolar o'z vakillarini erkin tanlash va o'z siyosiy qarashlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega.

Ta'kidlash joiz, Konstitutsiyada azob-uqubatlardan himoya qilish, shuningdek, qynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki kamaytiruvchi munosabat va jazolardan saqlanish kafolatlari ham belgilangan. Bu tamoyillar BMTning Qiynoqlarga qarshi konvensiyasining 2-moddasidagi "Har bir ishtirokchi davlat uning yurisdiksiyasidagi istalgan hududda qynoq harakatlarining oldini olish uchun samarali qonun chiqarish, ma'muriy, sudlov va boshqa choralarini ko'radi" degan qoidaga to'g'ri keladi.

Bu muvofiqliklar O'zbekistonning xalqaro huquqiy me'yorlarni milliy qonunchilikka qanchalik samarali singdirayotganini ko'rsatadi. Biroq, amaliyotda bu qoidalarning qo'llanilishi har doim ham ideal bo'lavermaydi va ko'pincha qo'shimcha islohotlar va monitoring talab etiladi. Bu muvofiqliklar va qiyinchiliklarni chuqurroq tushunish, keljakda huquqiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro inson huquqlari standartlari o'rtasidagi muvofiqlik tahlili, ikkala huquqiy tizim o'rtasidagi aloqadorlikni chuqurroq tushunishimizga yordam beradi. Biroq, mavjud tafovutlar va muammolar ham ko'p, va ularni hal qilish uchun qo'shimcha sa'y-harakatlar zarur. Bu tahlil natijalari, keljakda O'zbekistonning xalqaro huquqiy me'yorlarga moslashuvini yaxshilashga qaratilgan siyosiy va qonuniy islohotlarni amalga oshirishda foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro hujjatlar:

2. Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasi.

<https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

3. Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi Konvensiya.
<https://lex.uz/docs/-2655293>

4. Fuqaroviylar va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt.
<https://lex.uz/docs/-2640479>

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>

6. Maxmudov R.M., Qoraboev A.A. - Yangilangan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyatini harakatga keltiruvchi qonun sifatida. <https://scientific-jl.org/new/article/view/1603/1553>